

O‘ZBEK TILIDAGI EPITETLARDA PREDMETLI KODLAR VA ULARDA MILLIY-MADANIY KONNOTATSIYANING IFODALANISHI

Normurodova Zarifa Ruziqulovna

Termiz davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi.

Elektron pochta: zarifanr2020@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397715>

Annotatsiya. Ushbu maqolada stilistik unsurlardan biri bo‘lgan epitetlarda predmetli kodlar va ularda konnotativ ma’nomalarni ifodalanishi tahlil qilingan. O‘zbek tilidagi epitetlarda eng ko‘p qo‘llanilgan kodlar predmetli kodlar bo‘lib, ularning barchasi qimmatbaho metall, tosh nomi vositasida epitetlarni yuzaga keltirgan.

Kalit so‘zlar: epitet, predmetli kod, konnotativ ma’no, leksema, stilistik unsurlar.

REPRESENTATION OF SUBJECT CODES IN EPITHETS

Abstract. This article analyzes the representation of subject codes and connotative meanings in epithets, which are one of the stylistic elements. The most used codes in the epithets in the Uzbek language are object codes, and all of them created epithets by means of the name of a precious metal or stone.

Key words: epithet, subject code, connotative meaning, lexeme, stylistic elements.

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ КОДОВ ПРЕДМЕТОВ В ЭПИТЕТАХ

Аннотация. В данной статье анализируется репрезентация предметных кодов и коннотативных значений в эпитетах, которые являются одним из стилистических элементов. Наиболее употребляемыми кодами в эпитетах в узбекском языке являются объектные коды, и все они созданы эпитетами посредством названия драгоценного металла или камня.

Ключевые слова: эпитет, предметный код, коннотативное значение, лексема, стилистические элементы.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda tilni turli sohalar bo‘yicha tadqiq etish an’anaga aylandi. Tasviriy ifodalarni lingvistikaning turli yo‘nalishlarida o‘rganish va tadqiqotlar olib borish bugungi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biridir. Kod haqida gapirganda muhim bir jihat e’tiborga olinishi lozim – kodlashtirilgan axborot – shifrlangan axborotdir, bunda deshifrovka bosqichi bo‘lishi shart. Bu borada M.L.Kovshovaning izohi diqqatga sazovor: “Semiotikada kod belgilar sinfini hamda ularning interpretator tomonidan “o‘qilish” qoidalarini ifodalaydi, ular, o‘z navbatida, u yoki bu sohadagi bilim, u yoki bu

madaniyat bilan, interpretatorning kompetensiyasi bilan shartlangan bo‘ladi. Semiotikada *belgi* hamda uni mazmunan to‘yintiruvchi, interpretator uchun shifrlangan axborotni “o‘qish” imkonini beruvchi *kod* ajratiladi”¹.

Predmetli kod atrofidagi predmetlar (narsa-buyumlar) bilan bog‘liq kodlar² bo‘lib, ular birinchi navbatda millat turmushida keng o‘rinlashgan, hayotining ajralmas qismiga aylangan predmetlar nomi bilan ifodalanadi. Masalan, zumrad bahor, kumush qish, oltin kuz, munchoq yosh kabi birikmalarda o‘z ifodasiga ega bo‘ladi, kodlashtiriladi. Munchoq yosh birikmasidagi munchoq epiteti ham predmetli, ham fetish kod sanaladi. Xalqimizning, xususan boshqa millatlarning qadimdan saqlanib kelayotgan qadriyatlarida va qarashlarida munchoq turli balo qazolardan asrovchi, baxt va omad olib keluvchi, ko‘z va suqlardan, yomon nigohlardan saqlovchi predmet sifatida qaraladi. Munchoqning ham ko‘pgina turlari bo‘lib, ayniqsa, ko‘zmunchoq sharq xalqlari lingvomadaniyatida ko‘z va suqlardan himoya vositasida sifatida yangi tug‘ilgan chaqaloqning beshigida, bo‘yi yetgan qizlarning qo‘liga, yosh kelin-kuyovning chimildig‘iga taqib qo‘yiladi.

O‘zbek tilidagi epitetlarda predmetli kodlardagi epitetlarning katta qismi qimmatbaho metall va toshlar nomlari bo‘lib, bularning barchasi ijobiy konnotatsiyaga ega. Masalan, *oltin, kumush, la‘l, yoqut, zumrad* epitetlar hosil qilgan so‘zlar bo‘lib ular, rang, qimmatli leksemasiga ega.³ Bu kodlar ijobiyligi bilan xarakterlanadi. “Kumush buloqlarning suvlari sokin”(Zulfiya). Bu gapdagi kumush so‘zi epitet bo‘lib, u o‘z ma‘nosining “tiniq” semasi bilan qo‘llangan. Bunday epitetlar sub’yekti hamma vaqt aniq tushunchali otlardan iborat bo‘ladi. Bu gapdagi kumush epiteti sub’yekti ham aniq tushunchali buloq so‘zidir. Ammo epitetdan anglashilgan belgi buloq so‘zi denotatiga oid emas. Bu matndagi buloq so‘zida suv so‘zining ma‘nosi implitsit ifodalangan. Kumush epitetida ifodalangan belgi buloq so‘zida implitsit ifodalangan mana shu suvning belgisidir. Metall yoki element anglatuvchi kodlar bo‘lgan epitetlar predikativ qo‘shilmaning predikati vazifasida kelishi ham mumkin. Masalan: “*Fursat-oltin, sen ko‘krak kerib oltiningni sohib borasan*”. (E.Vohidov) Bu gapdagi oltin so‘zi epitet bo‘lib, o‘z ma‘nosining “qadrli” semasi bilan qo‘llangan. Biroq bu epitetning sub’yekti mavhum ot bo‘lib, vaqtni bildirgan. Metall yoki element anglatuvchi kodlar sifatlashuvidan iborat bo‘lgan epitetlar sub’yekti ba‘zan shunday mavhum otdan iborat bo‘lishi ham mumkin. Lekin ular deyarli holda vaqt ifodasiga ega bo‘ladi.

¹ . Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 169.

² Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati . – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 34.

³ Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2013.

O'zbek tilidagi epitetlarda predmetli kodlarning katta qismi qimmatbaho metall va ma'dan nomlari bo'lib, ularga oltin, kumush, zumrad, la'l, lojuvard, feruza kabi so'zlar asosida hosil bo'lgan epitetlar o'zbek millatining turmush sharoitlari kundalik ehtiyojlari to'g'risida ma'lumot berishi mumkin. Ularning ko'pchiligi o'z lug'at definitiyasida "qimmatli", "qadrl", "rang" semasiga ega. Demak, bunday sema, birinchidan, ularning kundalik turmushda yaxshi tanish ekanligini taqozo etsa, ikkinchidan, ularning kundalik hayotda tutgan o'rni va ahamiyati bilan shartlanadi. O'zbek tilidagi kodlarning o'ziga xosligini yaqqol tasavvur etishda shunday semaga ega bo'lgan predmetli kodlarning o'rni katta. O'zbek tilidagi epitetlar semantikasida obrazlilik bilan birga baho munosabati muhim hisoblanadi. Epitetlardagi predmetli kodlarning barchasida ijobiy baho yotadi. Shu qatori tabiat unsurlaridan ko'pchiligi jumladan, qimmatbaho toshlarning barchasi ijobiy konnotatsiyaga ega. Uni quyidagi misollarda ko'ramiz: *Suving ariq sarig' moyiday yo temirtov po'lati* (Zulfiya.gapdagi suving Temirtov po'lati brikmasidagi po'lat qaralmishi kulrang semasi bilan reallashgan epitetdir. U o'z ma'nosining rang bildiruvchi semasi bilan epitetga uchraydi. Ushbu predmetli kodda o'sha hududga xos bo'lgan boshqa hududlardan sifati bilan farqlanuvchi metall nomi ifodalanmoqda. *G'ishting binolari taftida pishgan Muhabbat atalmish sevgi gavhari* (A.Oripov). Bu gapdagi sevgi gavhari qaratqichli birikmasining qaralmishi, ya'ni gavhar epiteti o'z ma'nosining "qadrl" xususiyat bildiruvchi semasi bilan epitet holida reallashgan. Bunda xususiyat bildiruvchi qaralmish sevgiga qaratilgan bo'lib, epitet gavhar predmet nomini bildirib, aniq narsa belgisiga asoslangan va ijobiy ma'no bildirgan. Baho belgisini anglatuvchi predmetli kodlar ko'proq qimmatbaho narsani anglatuvchi otlar sifatlashuvidan yuzaga keladi. Masalan: *Pastga boqdi cho'qqidan asta oltin qalam tutgan naqqosh* (E.Vohidov), *Kumush buloqlarning suvlari sokin*. Misollardagi oltin, kumush qimmatbaho metall hisoblanadi. Bunda otlar o'zining sema va semalari asosida sifatlashadi. Ular "qadrl", "sariq", "oq" kabi ma'nolarni ifodalab, ushbu predmetlar ma'lum turmush realiyalarini yuzaga chiqaradi. Metall, yoki element anglatuvchi epitetli predmetli kodlar qimmatbaho, nodir, kamyob narsalarga nisbatan qo'llanilib, ko'p holda vaqt ifodasiga ega bo'ladi. Masalan, *Fursat-oltin, sen ko'krak kerib, oltiningni sochib borasan*. Ushbu misolda keltirilgan oltin predmetli kodi vaqtning naqadar qadrl, qaytarilmas va inson hayotida naqadar muhim ekanligini anglatib, insonlar bu oltin daqiqalarni mensimay boy berayotganini ifodalamoqda. Tabiat unsurlarini anglatuvchi predmetli kodlarda mustahkam, baquvvat semalari anglashiladi. Masalan, *Har mushkulga bardosh berar, chidar mening tosh boshim* (E. Vohidov). Bu misoldagi predmetli kod tosh so'zi asosida yuzaga kelgan epitet bo'lib, u "chidamli", "bardoshli" semasiga ega. Albatta, o'zbek mentalitetida hazrati insonning ulug'lanishi yuksak qadriyat ekanligi haqiqat. O'zbek milliy qadriyatlarida, oila tarbiyasida, bobo – momolarimizning farzandlariga, nevaralariga bildirgan

tilaklarida, duolarida ularga qarata “Boshing toshdan bo’lsin” deyishlari bejizga emas. Hali hayotning baland-pastini, mashaqqatlarini ko’rmagan yosh go’daklarning chidamli, baquvvat bo’lishlarini, hayot yo’llarida qoqilmasligini tilak qilishadi. Bu esa o’zbek mentalitetiga xos bo’lgan xususiyat, mehr – muhabbat kabi o’lmas qadriyatlar haqida axborot beradi. Qimmatbaho tosh nomlari asosida yuzaga kelgan epitetlarning asosida ijobiy munosabat yotadi. Masalan: Yondi bu feruza gumbaz; Zangining bo’yniga osmish giyodan marjon uzum; Ey zumrad bahorim!; Lojuvard kenglikka qildilar parvoz; La’li shahd borini o’p (E. Vohidov)

Keltirilgan misollardagi feruza, marjon, zumrad, lojuvard, la’l kabi qimmatbaho tosh nomlarini anglatuvchi so’zlar epitet vazifasini bajarib, bunda feruza, zumrad so’zida “yashil”, “jiloli” semalari, lojuvard so’zida ma’nosi “to’q ko’k”, “tiniq” semalari, la’l so’zi ma’nosi “qizil” va “tiniq” semalari bilan qo’llangan. Bu predmetli kodlar millatning madaniy me’yorlarini uning mentalitetidagi ustuvor qadriyatlarni, umuman, olam haqidagi tasavvurlarni tushunish imkonini beradi. Qolaversa, feruza va zumrad toshlari sharq xalqlarida, xususan, o’zbek milliy madaniyatida xotin- qizlarning eng sevimli taqinchog’i sifatida taqiladi va ularning qarashlarida bu toshlar baxt va omad keltiruvchi xususiyatga ega deb hisoblanadi. Shu o’rinda bu predmetli kodlar orqali nafaqat yuqoridagi semalar, balki xalqimizga xos turmush realiyalari ham anglashiladi. Demak, bunday sema, birinchidan, ularning kundalik turmushdan yaxshi tanish ekanligini taqozo etsa, ikkinchidan, ularning kundalik hayotda tutgan o’rni bilan shartlanadi⁴. Bu kabi epitetlar hosil qilgan so’zlar predmetlar olami unsurlarining rang-tusi va boshqa xususiyatlarini ifodalashda foydalaniladi.

Demak, olamni idrok etishda har bir til jamoasi ongida tarixan shakllangan, barqarorlashgan aynan shu jamoa uchun xos bo’lgan odatiy majburiy usullari majmuiy olamning lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi. Lingvomadaniyat-shunoslikda predmetli kodlar olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof etilar ekan, ushbu kod muayyan madaniy mazmunni kodlashtirish maqsadida qo’llaniladi. Umuman olganda epitetlardagi predmetli kodlar obrazlilik yaratish bilan birga xalqning milliy madaniyatini qarashlarini mentalitetini tushunish kalitidir, u biror-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi. Biz epitetlarni lingvomadaniy kodlar nuqtai nazaridan tahlil qilib chiqqanimizda eng faol va ko’p uchraydigan kod predmetli kodlar ekanligini aniqladik. Epitetli predmetli kodlarning aksariyati inson maishiy turmushidagi ashyolar nomlarining ramziy ma’no kasb etishi vositasida yuzaga kelgan bo’lib, o’zbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning

4. Ф. Усманов . Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Фил фан.бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Т.: 2020. 70-б.

voqeilik va undagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashida maishiy buyumlar xususidagi tushunchalarning qay tarzda vosita bo'lganligini ko'rsatadi.

REFERENCES

1. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 169.
2. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati . – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 34.
3. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarning izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
4. Ф. Усманов . Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Фил фан. бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Т.: 2020. 70-б.